

## XUFYONA IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISHNING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI

**Ruzmatov B.SH.**

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti,

Magistratura tinglovchisi

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchilik bazasi ma'lumotlariga asoslanib xufiyona iqtisodiyotga qarshi kurash yuzasidan qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar ko'rsatilgan hamda xufiyona iqtisodiyotga qarshi kurash muammolarini o'rganish va mexanizmlarni joriy etish maqsadida tegishli vazirlik va idoralarning umumiy shtat birligi doirasida bir qator tuzilmalar shakllantirilganligini va qonunchilik talablariga rioya etgan holda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarini aniqlash va rag'batlantirishni nazarda tutuvchi tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini ko'rib tahlil qilindi.

**Kalit so'zlar:** Prezident farmonlari, tadbirkorlik reytingi, soliq, yashirin iqtisodiyot, korrupsiya.

**Abstract:** In this article, based on the information of the national legal base of the Republic of Uzbekistan, the legal documents adopted on the fight against the secret economy are shown, and in order to study the problems of the fight against the secret economy and introduce mechanisms, the general staff unit of the relevant ministries and agencies it was analyzed by looking at the formation of a number of structures and the stability rating of business entities, which provides for identification and promotion of business entities operating in compliance with legal requirements.

**Key words:** Presidential decrees, business rating, tax, hidden economy, corruption.

Hozirgi kunda xufiyona iqtisodiyotga qarshi kurash masalasi O'zbekiston Respublikasi uchun dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda. Uni qisqartirish borasida huquqiy va tashkiliy ishlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchilik bazasi ma'lumotlariga asoslanib, hozirgi kunga qadar xufiyona iqtisodiyotga qarshi kurash yuzasidan ko'pgina me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan 2010 yil 22 sentyabrda O'zbekiston Respublikasining "Pirotexnika buyumlari muomalasi tartibga solinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi, 2010 yil 22 sentyabrda O'zbekiston Respublikasining "Rieltorlik faoliyati to'g'risida"gi, hamda 2011 yil 5 oktyabrda O'zbekiston Respublikasining "Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risida"gi Qonunlari va boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 21 aprelida "Moliyaviy-iqtisodiy, soliq sohasidagi jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-331-sonli, hamda 2008 yil 8 iyulida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Odam savdosiga qarshi kurash chora tadbirlari samaradorligini oshirish to'g'risida"gi PF-911-sonli Qarorlari hamda Respublikada chakana savdo sohasidagi xufiyona iqtisodiy faoliyatni cheklash maqsadida 2012 yilning 1 fevralida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalariga qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi.

Shuningdek, xalqaro huquq printsiplariga mos bir qator xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan Konventsionalarni ratifikatsiya qilgan. Jumladan, 1995 yilning 24 fevralida № 32-I – qayd raqami bilan "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni

g'ayriqonuniy ravishda muomalaga kiritishga qarshi kurash to'g'risidagi Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1988 yilning 19 dekabrda qabul qilingan Vena Konventsiyasi<sup>1</sup>ga qo'shilgan. 1998 yil 1 mayda 630-I sonli qayd raqami bilan "Tovar belgilariga doir qonunlar to'g'risidagi Shartnoma"ga qo'shilgan. 2001 yil 12 mayda "Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to'g'risidagi xalqaro Konventsiya" ratifikatsiya qilingan. 1996 yil 5 marta Toshkent shahrida Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston hukumatlari o'rtasida "Narkotik vositalarning noqonuniy aylanishi va psixotrop moddalar va ularni suiste'mol qilishga qarshi kurash to'g'risidagi" Kelishuv imzolangan<sup>1</sup>.

2008 yilning 7 iyulida "Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korruptsiyaga qarshi kurash Konventsiyasiga" (Nyu-York, 2003 yil 31 oktyabr) qo'shildi. 2008 yilning 8 iyulida Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konventsiyasini (Nyu-York, 2000 yil 15 noyabr) to'ldiruvchi Odam savdosining oldini olish hamda unga chek qo'yish va uning uchun jazolash haqidagi Protokol" ratifikatsiya qilindi. Bundan tashqari, MDH doirasida

2011 yilning 16 iyunida Rossiya Federatsiyasining Moskva shahrida imzolangan Evroosiyo guruhining "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legalizatsiya qilish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to'g'risida"gi kelishuv

2011 yilning 13 dekabrda ratifikatsiya qilindi. Xufiyona iqtisodiyotga qarshi kurashish borasida oxirgi yillarda qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar ichida Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 20 iyundagi O'zbekiston Respublikasida «Yashirin iqtisodiyot» ulushini qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 394-sonli Qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 oktyabrdagi Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risidagi PF-6098-sonli Farmoni alohida o'ringa ega. Vazirlar Mahkamasining yuqorida keltirib o'tgan qaroriga asosan yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish chora-tadbirlarini amalga oshirish bo'yicha «Yo'l xaritasi» tasdiqlandi. Unga ko'ra qarshi kurashishning asosiy yo'nalishlari belgilandi:

1. Xufiyona aylanmani qisqartirishga qaratilgan boshqaruvda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish;
2. Iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va markirovkalash;
3. Iqtisodiyotda naqd pulsiz hisob-kitoblar hajmini oshirish;
4. Bank xizmatlarining ommabopligini oshirish;
5. Tashqi savdoda yashirin iqtisodiyot ulushini sezilarli darajada qisqartirish.

PF-6098-sonli Prezident farmoniga asosan esa bir qator chora-tadbirlar belgilab olindi:

1. Biznes uchun soliq tartib-taomillarini soddalashtirish va osonlashtirish, ularni shaffof qilish, soliq yukini kamaytirishga qaratilgan yumshatish choralari;
2. Soliq solish bazasini oshirish, ayrim operatsiyalar bo'yicha imtiyozlarni bekor qilish bo'yicha chora-tadbirlar;
3. Elektron ma'murchilikni takomillashtirish chora-tadbirlari;
4. Tashkiliy chora-tadbirlar.

Xufiyona iqtisodiyotga qarshi kurash muammolarini o'rganish va mexanizmlarni joriy etish maqsadida tegishli vazirlik va idoralarning umumiy shtat birligi doirasida bir qator tuzilmalar shakllantirildi:

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикасининг Миллий хавфсизлик концепцияси 1997 йил 29 август III Бўлим "Миллий хавфсизликка таҳдидлар" (иқтисодий соҳада, ички таҳдидлар, 10 – хат боши).

– Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tarkibida "Yashirin iqtisodiyotni tahlil qilish boshqarmasi" shakllantirildi. Uning asosiy vazifalari etib tahlillar o'tkazish va yashirin faoliyat darajasi yuqori bo'lgan iqtisodiyot sohalarini aniqlash belgilangan;

– Davlat soliq qo'mitasi tarkibida "Soliq nazorati departamenti hamda Iqtisodiyot tarmoqlari faoliyatini tahlil qilish" va "xufiyona iqtisodiyot" muammolarini o'rganish bo'limi shakllantirilgan. Uning asosiy vazifalari yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan soliq qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qilish, qo'shilgan qiymat solig'i bilan bog'liq firibgarlik sxemalarini aniqlash va agressiv soliq rejalashtirishga qarshi kurashish belgilangan;

– Moliya vazirligida yashirin iqtisodiyotni qisqartirish ishlarini tashkil etish bo'limi shakllantirilib, unga Maxsus komissiyaning ishchi organini vazifalari ham yuklatilgan.

Tadqiqotlarga ko'ra korrupsiya va xufiyona iqtisodiyot iqtisodiy xavfsizlik munosabatlarining institutsional asoslariga tahdid soluvchi asosiy kuchlar bo'lib, korrupsiya va xufiyona iqtisodiyot o'rtasida chambarchas aloqa mavjud, ular ma'muriy to'siqlardan iborat umumiy ildizlarga ega<sup>2</sup>. Mamlakatda "xufiyona iqtisodiyot" darajasining yuqoriligi poraxo'rlik darajasining ham yuqori darajada bo'lishiga zamin yaratadi<sup>3</sup>. Xufiyona iqtisodiyot nafaqat iqtisodiy ijtimoiy tuzilmalar, jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarni o'z ichiga oluvchi murakkab ijtimoiy iqtisodiy voqealardir<sup>4</sup>.

O'zbekiston Respublikasida shakllangan korrupsiyaga qarshi kurashishning institutsional tizimida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6257-sonli Farmoni muhim o'rin turadi. Farmon asosida 44-banddan iborat Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2021–2022 yillarga mo'ljallangan davlat dasturi tasdiqlandi. Davlat dasturi ijrosi doirasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 12 yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-81-sonli qarorini alohida ta'kidlash joiz. Chunki mazkur qaror asosida ilk marotaba davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi faoliyatiga oid samaradorlik ko'rsatkichlarini belgilash va ularni ilg'or xalqaro standartlar asosida baholash tizimi joriy etildi<sup>5</sup>. Davlat va tarmoqlar darajasida qabul qilingan dasturlar va qarorlar korrupsiyaga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini oshirishga mustahkam zamin yaratmoqda.

Shuningdek qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar ichida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-yanvardagi PQ-39-sonidagi "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 30 yanvardagi "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 55-sonli Qarori alohida o'ringa ega. Yuqorida keltirib o'tgan qarorga asosan qonunchilik talablariga rioya etgan holda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarini aniqlash va rag'batlantirishni nazarda tutuvchi tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etilib, reyting Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining "Tadbirkorlikning barqarorlik reytingi" elektron

<sup>2</sup> Qobilov Sh. R., Abdullajonov N. B. Korrupsiya va xavfsizlik. -T .: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2006. - 43 b.

<sup>3</sup> Tagayev B.A., "Xufiyona iqtisodiyot" iqtisodiy xavfsizlikka tahdid sifatida, "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2015-yil.

<sup>4</sup> Isaxojayev A.T., Rasulev A.F. Xufiyona iqtisodiyot va iqtisodiy xavfsizlik.Monografiya. T. IIV Akademiya. 2004-y.-B.11.

<sup>5</sup> Bekmurodov A.Sh. Korrupsiyaga qarshi kurashish. Darslik. // Mas'ul muharrir Bekmurodov A.Sh.: – Toshkent: "Akademiya", 2022. – 344 b.

platformasida idoralararo axbarot almashinuvi vositasida avtomatik tarzda shakllantirilishi va Savdo-sanoat palatasining rasmiy veb-saytida e’lon qilib borilishi belgilandi<sup>6</sup>.

Mazkur reytingni mezonlari va tartib tamoyillari ishlab chiqildi. Unga ko’ra:

- Tadbirkorlik faoliyat davri;
- Rentabellik darajasi;
- to’lov intizomi;
- aholi bandligidagi o’rni va ish haqi kabi 23 ta mezon asosida 4 ta toifaga ajratiladi.

Bu soliq, Adliya va sud organlari ma’lumotlari asosida shakllanadi. Har bir tadbirkor o’z o’rni va bahosini real vaqtda bilib borishi mumkin bo’ladi. Reytingi yuqori tadbirkorlar uchun barcha soliq tekshiruvlari bekor bo’ladi. Qo’shilgan qiymat solig’i summasi bir kunda va boshqa soliq turlari bo’yicha ortiqcha to’lov uch kunda qaytarib beriladi. Tovarlarini import qilishda va sotishda qo’shilgan qiymat solig’ini bojxona va soliq organlarida o’zaro hisobga olish imkoniyati yaratiladi. Auksionda olingan davlat aktivlari va yer uchastkalari qiymatini bo’lib to’lash muddati 3 yildan 5 yilgacha uzaytiriladi. Bunda kamida 15% miqdorida dastlabki to’lovni biryo’la amalga oshirganda, qolgan summaga yillik foizlar hisoblanmaydi.

Reyting doirasida tadbirkorlik subyektlari quyidagi toifalarga ajratiladi:

- **“AAA”, “AA” va “A” toifalar** – yuqori barqarorlik reytingi;
- **“BBB”, “BB” va “B” toifalar** – o’rta barqarorlik reytingi;
- **“CCC”, “CC” va “C” toifalar** – qoniqarli barqarorlik reytingi;
- **“D” toifa** – quyi barqarorlik reytingi (1-jadval).

1-jadval

Toifalar							
Yuqori		O’rta		Qoniqarli		Quyi	
AAA	100-96 ball	BBB	85-76 ball	CCC	55-51 ball	D	25 ballgacha
AA	95-91 ball	BB	75-66 ball	CC	50-36 ball		
A	90-86 ball	B	65-56 ball	C	35-26 ball		

Bunday reyting shuning uchun ham muhimki endi tadbirkorlar faoliyatiga soliqchilar emas elektron tizim baho beradi. Kelgusida subsidiya, imtiyoz va preferensiyalar reytingdan kelib chiqib beriladi. Ko’rsatkichi past bo’lganlar intizomli tadbirkorlar safiga kirish va ko’proq imkoniyatlarga ega bo’lish uchun harakat qiladi. Yana bir tomoni bu reyting tadbirkorlarga o’z hamkorlari to’g’risida ishonchli ma’lumot beruvchi himoya tizimiga aylanadi ya’ni shubxali shartnomalar va insofsiz raqobatga chek qo’yilib yashirin iqtisodiyot qisqaradi. Davlatimiz rahbari bu tizimni puxta ishlab chiqib adolatli va samarali yo’lga qo’yishi zarurligina ta’kidladi.

Xulosa o’rnida aytishimiz mumkinki, mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatni yuritish uchun qulay sharoitlar yaratish va investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan keng ko’lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Qurilish sohasida faoliyat olib borayotgan korxonalarda ishchilarning atigi 15-20 % rasmiy ravishda bandligi ta’minlanib, qolgan ishchilarga esa “konvert”da oylik maosh to’lash ishlari davom etishini, buning natijasida qurilish tashkilotlari to’lanishi lozim bo’lgan daromad va ijtimoiy soliqlardan qutilib qolish hamda hufyona iqtisodiyotni saqlab qolishga sharoit yaratib berishlarni oldini olish maqsadida shuni taklif qilmoqchimanki, farmonda ko’rsatilgan tartibda soliq organlariga taqdim qilgan yollanma ishchilar ro’yxatini amalda ishlayotgan ishchilar bilan solishtirish hamda soliqdan

<sup>6</sup> <https://lex.uz/uz/docs/-6773342>



qochish maqsadida soliq organlarini chalg'itganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortish choralarini ko'rish va bu amaliyotni boshqa turdosh korxonalariga ham joriy qilish.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикасининг Миллий хавфсизлик концепцияси 1997 йил 29 август III Бўлим “Миллий хавфсизликка таҳдидлар” (иқтисодий соҳада, ички таҳдидлар, 10 – хат боши).
2. Qobilov Sh. R., Abdullajonov N. B. Korrupsiya va xavfsizlik. -Т .: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2006. - 43 b.
3. Tagayev B.A., “Xufiyona iqtisodiyot” iqtisodiy xavfsizlikka tahdid sifatida, “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2015-yil.
4. Isaxo‘jayev A.T., Rasulev A.F. Xufiyona iqtisodiyot va iqtisodiy xavfsizlik.Monografiya. T. IIV Akademiya. 2004-y.-B.11.
5. Bekmurodov A.Sh. Korrupsiyaga qarshi kurashish. Darslik. // Mas’ul muharrir Bekmurodov A.Sh.: – Toshkent: “Akademiya”, 2022. – 344 b.
6. <https://lex.uz/docs/-5073459?ONDATE=10.02.2023>
7. <https://lex.uz/uz/docs/-6773342>